



## CHET TILINI FARZANDLARIMIZGA O'RGATISHNI QACHONDAN BOSHLAGANIMIZ MA'QUL?

Umirova Dilshoda Husniddin qizi<sup>1</sup>

ingliz tili 2-fakulteti 3-bosqich talabasi

Hojiqulov Shukrullo Qodirovich<sup>2</sup>

Ilmiy rahbar

1-2 O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7041253>

### ARTICLE INFO

Received: 27<sup>th</sup> August 2022

Accepted: 29<sup>th</sup> August 2022

Online: 01<sup>st</sup> August 2022

### KEY WORDS

Chet tili, talaffuz, tovushlar, hissiyot, fikrlash, multfilm, ertaklar, o'yin texnikasi

### ABSTRACT

*Ko'pchilik ota-onalar hozirda o'z farzandlariga kichikligidan chet tilini o'rgatishni xohlaydi, shu sababli ushbu maqolada qaysi yosh bola uchun til o'rganishga mosligi, nega aynan o'sha yoshda til o'rganish tavsiya etilishi yoritilgan. Bu maqola xorijiy olimlar tajribasi asosida yozilgan va ota-onalar, ularning farzandlari uchun chet tilini o'rganish borasida kerakli tajriba va tavsiyalar berilgan.*

Bugungi kunda yurtimizda ingliz tili, rus tili, arab tiliga qiziquvchilar soni talaygina, yaratib berilayotgan shart-sharoitlar natijasida har bir yosh avlod o'zining iqtidorini namoyon etmoqda, shuning natijasi o'laroq yurtimizda til bilish ko'rsatkichi joriy yilda yanada oshdi, quvonarlisi shuki bularning ko'pchiligini yoshlar tashkil etadi. Hozirda ko'pchilik ota-onalar farzandi kelajagiga befarq emas, shuning uchun ularni yoshligidan chet tili to'garaklariga berishmoqda, ammo ularni deyarli hammasini qiynayotgan bir savol bolaga chet tilini necha yoshdan boshlab o'rgatish kerakligidir. Buning javobini "Uchdan keyin kech" nomli Yaponiyada eng ko'p sotilgan kitob muallifi Masaru Ibuka tajribasi bilan aytish mumkinki, bolaning til o'rganish ko'nikmasi 3 yoshgacha undan keyingi davrga nisbatan ancha yuqori bo'ladi, chunki bu davrda bolaning orqa miyasining 80 foizi shakllanadi, shu sababli u hattoki 5 tagacha xorijiy tilni birvarakayiga o'rganishi mumkin. Ko'pchilik bolaga bu kabi ko'p ma'lumotlar

berilishi uning miyasini keyinchalik erinchoq bo'lib qoladi deb tashvishlanishi mumkin, ammo ota-onalar bolaga axborotni ko'p miqdorda berishdan emas, balki oz miqdorda berayotganliklaridan havotirda bo'lishlari kerak, negaki boladagi 3 yoshgacha bo'lgan davrdagi axborot va ma'lumotlari, keyingi davrdagi hissiyot, fikrlash kabi bosqichlar uchun fundament vazifasini o'taydi, ya'ni 3 yoshgacha to'plangan ma'lumotlar bir komputer, keyingilari esa komputer dasturidir. Agar bolada bu davrgacha ma'lumot to'planmagan bo'lsa, xuddi buzilgan komputerga nuqul yaxshi dastur o'rnataverishdek gap, shuning uchun biz farzandlarimizni bu davrini bee'tibor qoldirish uning butun hayoti davomida har sohada qiynalishiga sabab bo'lishini anglashimiz kerak.

Ko'pchilik nega chet tilini o'rganishda, talaffuz qilishda qiyinchilikka uchraydi? Sababi shuki, chet tilidagi harflar, so'zlar talaffuzi yoshlikdan o'rganilmagan, bizning ongimiz bunga moslashmagan, masalan



yaponlar [r] va [l] tovushlarini yaxshi talaffuz qilisha olmaydi, ammo bir yosh-u ikki oylik yapon bolasi ingliz tilidagi bu tovushlarni qiyinchiliksiz talaffuz qila oladi, shu sababli bolaga bu davr mobaynida predmetlarni ko'rsatib ingliz tilida qanday talaffuz qilishi o'rgatilsa, turli xil ingliz tilidagi multfilmlar me'yor darajada ko'rsatilib, ingliz tilida ertaklar eshittirilsa, boladagi til o'rganish qobiliyati to'g'ri shakllantirilgan bo'ladi, bundan tashqari bola chet tilidagi tovushlarni keyinchalik qiyinchiliksiz talaffuz qila oladi.

Ba'zida sinfda kimningdir o'zlashtirishi yuqori, kimnikidir qancha harakat qilsa ham juda past, buning sababi o'qituvchi yaxshi ta'lim bermaganligi uchun emas, balki bolani 3 yoshgacha bo'lgan davrida

hech kim unga yetarli baza bermaganligidadir. So'zimning so'ngida shuni aytmoqchimanki, bolaning o'qituvchisi, avvalo, ota-ona, unga ta'lim berish davri esa bog'chadan ham oldingi davr - uch yoshgacha bo'lgan davr, agar bu davrda ota - ona bola bilan suhbatlashib, uni tinglab u bilan har kuni kamida 2 soat shug'ullansa, (shuni unutmash kerakki, bolaga bu yoshda ta'lim berish - bolaga yozish va o'qishni o'rgatish emas, u bilan o'z ona tilini o'rganguncha boshqa tillarda mashg'ulotlarni amalga oshirish, kuylash, turli xil o'yinlarni o'ynash tushiniladi) bola bilan o'ynasa, hayoti davomida bolaga hech qanday qayta tayyorlovga ehtiyoj ham qolmaydi.

### References:

1. <https://www.scientificamerican.com/article/at-what-age-does-our-ability-to-learn-a-new-language-like-a-native-speaker-disappear/#:~:text=They%20concluded%20that%20the%20ability,before%20the%20age%20of%2010.>
2. <https://www.bbc.com/future/article/20181024-the-best-age-to-learn-a-foreign-language>
3. [https://www.unitedlanguagegroup.com/blog/translation/at-what-age-is-it-easiest-to-learn-a-new-language?hs\\_amp=true](https://www.unitedlanguagegroup.com/blog/translation/at-what-age-is-it-easiest-to-learn-a-new-language?hs_amp=true)
4. <https://www.teatimemonkeys.com/what-is-the-best-age-to-learn-a-new-language/>
5. <https://www.researchgate.net/post/What-is-the-most-suitable-age-to-learn-a-foreign-language>
6. <https://www.amazon.com/Kindergarten-Too-Late-Masaru-ibuka/dp/0671253638>